

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

BOLALARНИ MAKТАНГА ТАЙЯРЛАШДА ВА УЛАРНИНГ ТАРИЯСИДА ОТА ОНАНИНГ О'РНИ

Mirzayeva Gulasal Ergashovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institute “Xorijiy til va adabiyoti
quyi kurslar kafedrasi” o’qituvchisi*

Tel: +998915182920

gulasalmirzayeva@mail.com

Hasanova Sevinchoy Ramozon qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti
mактабгача та'лим yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onaning va oilaning o'rni muhim ahamiyat kasb etishi haqida so'z yuritiladi. Xususan, bolani tarbiyalash, unga ilm berish faqatgina ustozzagina xos emas, balki ota-onaga, butun jamyatga tegishli ekani, bola tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xatoliklar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, talim tarbiya, munosabat, farzand, shaxs, maktab, ma'nnaviy rivojlanish

Oila - bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti muhim xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bu birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy ma'nnaviy qiyofasini ko‘radi, jamiyatda o‘zini tutishni shaxs bo‘lib shakllanishni ilk bora shu kichik jamoa orasida oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglab boradi. Biz oilani "kichik vatan" deb ataymiz. Shu kichik vatanda bola ilk tarbiyani oladi va bu unga tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-ona farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bolmog'i kerak. Bolaga o'zi yaxshi fazilatlar bilan o'rnak bo'la oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmli,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo'ladi. Bizga ma'lumki, bola tarbiyasida ota-onasiga va farzand munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli pedagog A. S. Makarenko bola shaxsining rivojlanishi haqida shunday deb yozgan. "Tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'sangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Aynan shu vaqt oralig'i ota-onadan katta mas'uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtida ota-onasiga o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'llanishi kerak. Aynan shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir. Bolaning mактабгача rivojlanishida bosib o'tadigan yo'li juda katta hisoblanadi. Bola yetti yoshga to'lganda uni hayotida tub o'zgarishlar ro'y beradi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Bola endi maktab jamoasiga kirib o'r ganib borishi lozim. Endi u shu jamoanining bir bo'lagi ekanligini his qilishi, maktab intizomlariga amal qilishi, tartib qoidalarga bo'ysunishi va o'r ganishi kerak bo'ladi. Bunda ota-onanining yordami bola uchun juda zarurdir. Ota-onasiga farzandini qo'ldan kelgancha yordam ko'rsatib, qo'llab quvvatlashi kerak.

Ota-onasiga farzandini yoniga chaqirib, maktab haqida ma'lumotlar berishi kerak, uni ko'rinishi xonalari joylashuviga haqida emas, balki uning nimaga mo'ljallanganligini, vazifasi nima ekanligi haqida tasavvurlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ota-onasiga o'z bolasini ilmli, komil inson bo'lishini istasa bolasiga to'g'ri tarbiya beradi, o'qishidan xabardor bo'lib turadi, o'qituvchi bilan doim aloqada bo'ladi. Shundagina farzandidan yaxshi natija kutshi mumkin. O'z farzandini kamolotini ko'rishni istagan ota-onasiga, hamma mas'uliyatni o'qituvchiga yuklamaydi, balki o'qituvchi bilan doimo birga faoliyat olib boradi. Ota-onasiga farzandiga ustozni hurmat qilishni, ustoz ikkinchi ona ekanini, maktab ikkinchi uyi ekanini uqtirishi kerak. Shundagina bola ustozini hurmat qiladi, uning barcha o'rgatgan narsalarini xotirasida muhrlaydi. Bu esa shu o'rgangan narsalarini keyinchalik hayotida qo'lay olishiga yordam beradi. Agar ota-onasiga farzandiga uning tarbiyasiga e'tibor bermasa, bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtida esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Kech

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo'lganda esa afsuslanishdan foyda bo'lmay qoladi. Olimlarimiz ota-onalarni farzandini tarbiyalashda quyidagi xatolarga yo'l qo'yishini aytib o'tadi. Bular quyidagilar:

1. Bolani doimiy ravishda tanqid qilish, uni o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga, mustaqil fikrlay olmasligiga olib keladi. Mustaqil fikriga ega bo'limgan inson hayotda o'z o'rniha ham ega bo'la olmaydi.

2. Ko'pchilik insonlar ular bilan suhbatlashadigan insonni emas, uni tinglaydigan insonni qidirishadi. Bola ham o'zini tinglaydigan insonni qidiradi. Agar bolani uyda fikri umuman tinglanmasa, qo'llab-quvvatlanmasa undagi ishtiyooq so'nadi, odamlarning orasida erkin bo'la olmaydi, o'z fikrini aniq, ravon bayon eta olmaydi.

3. Bolani hamma aytganini qilaverish ham uning tarbiyasini sesilarli ravishda o'zgartiradi. U erkatoy, tantiq qisqa qilib aytganda tarbiyasining buzilishiga olib keladi.

4. "Qush uyasida ko'rganini qiladi." Shunday ekan bolaga to'g'ri tarbiya berishni istagan inson, avvalo, o'zini tarbiya qilishi, o'zi bolaga o'mak bo'lmos'i kerak. Shundagina bola oila boshlig'iga qarab o'zgaradi.

5. "Urib jazolashdan tiyilish kerak. Bu bolani kelajakka yana xato qilmaslikka o'rgatmaydi".

6. Bolaga o'ta muloyimlik qilish ham uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etib o'tgan fikrlarimiz bola tarbiyasidagi xatolar hisolanadi. Bularni davom ettirsak juda ko'p xatolar bor. Hozirgi kunda ota-onalar bolalar tarbiyasida ko'pgina xatolarga yo'l qo'yishmoqda. Bu esa bolalarining noqobil bo'lib voyaga yetishiga sabab bo'lyapti.

Ushbu maqola oxirda xulosa o'rinda shuni aytishim kerakki, Bolani tarbiyalashda ota-onaning o'rni beqiyosdir. Ota-onalarni kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tiborli bo'lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog'i uchun tarbiya samarali bo'lishi kerak. Xalqimiz orasida "Qush-uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol yuradi. Oilada muhit qanday bo'lsa, farzand tarbiyasiga ta'sir qiladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Maktab oiladan boshlanadi. - T.: Yangi asr avlodi. 2013.
- 2.Salaeva M.S. O'tmish mutafakkirlarimiz ota-onas va farzandlar munosabatlari xususida // Mahrifat yog'dusi. № 3. 2000.-B. 76-80.
- 3.Salaeva M.S. Oiladagi kichkintoylar // Boshlang'ich tahlim. № 4. Iyulg'-avgust, 2002 yil. -B. 18-19.
- 4.Salaeva M.S. O'quvchilaming oiladagi o'zaro munosabatlari va dars // Xalq tahlimi. №1. 2002. -B. 49-52.
5. M.G.Ergashovna,Z.Muhabbat "Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda chet tillarni o'qitishning ilmiy pedagogic asoslari" образование наука и инновационные идеи в мире.№44 6-2024
6. Q. Shodiyeva "Nutq o'stirish uslubiyoti" "o'qituvchi" nashriyoti Toshkent2019
7. [Outline the main principles of teaching young learners and teenagers](#)
M.G. Ergashovna, O.S. Narzulloyevna Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific
8. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbanaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.